

MAVZU : LEYKODERMA O'ZI NIMA ?

KOKAND UNIVERSITETI ANDIJON
FILIALI DAVOLASH ISHI YONALISHI

25-09 Guruh talabasi

IBAYDULLAYEV HOJIMUHAMMAD BILILDIN OGLI

ibaydullayev2025@mail.ru +998884722499

ILMIY RAXBAR : ALIYEV LAZIZBEK MAXAMADJONOVICH

**ANOTATSIYA: TERIDA OQ DOG'LAR NIMA UCHUN VA QANDAY
PAYDO BO'LADI?**

Pigmentning kamayishi yoki yo'qolishi natijasida terining pigmentatsiyasi buzilishi, teri gipopigmentatsiyasi shuningdek leykoderma deb ham ataladi. U terining rangidan ko'ra ochroq rangga ega bo'lgan turli o'lcham va shakllardagi dog'lar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Uning rivojlanishi terida melanin pigmentining kamayishi bilan bog'liq. Teridagi oq dog'lar uning pigmentatsiyasi yo'qotilganligini ko'rsatadi, turli o'lchamlarda ayollarda ham, erkaklarda ham tananing har qanday qismida paydo bo'lishi mumkin. Oq dog'lar shaklidagi terining gipopigmentatsiyasi (rangi yo'qolishi) ko'plab tug'ma va orttirilgan kasalliklar va sindromlarning natijasi bo'lishi mumkin.

KALIT SOZLAR: Pigment, Teri gipopigmentatsiyasi, Leykoderma, Melanin pigmenti, Teridagi oq dog', Kasallik sindromlari.

KIRISH: Leykoderma, leykopatiya — teri kop pigmenti (melanin)ning kamayishi yoki butunlay yo'qolishi tufayli terining ayrim joilarida oq mayda doglar paydo bo'lishi. Ilgari bo'lib o'tgan teri kasalliklari (ekzema, temiratkilar va boshqalar) oqibatida, ba'zi dorilar ta'sirida yoki umumiy kasalliklar (ikkilamchi zahm va boshqalar)ning belgilaridan biri sifatida paydo bo'lishi mumkin. Chin va soxta L. farq qilinadi. Tibbiy amaliyotda, «vitiligo» nomi bilan bir qatorda, mazkur kasallikning leykodermiya kabi nomlanishini ham uchratish mumkin. Lotin tiliga murojaat qilinsa, so'zning «oq teri» degan ma'noni anglatadi. Statistika kelganda, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 1 foiziga yaqini vitiligo kasalligiga chalingan. Kasallik ma'lum bir populyatsiyaga bog'liq emas, ammo qora tanli odamlarda dog'lar aniqroq seziladi. Ko'p hollarda, kasallik 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan davrda o'zini namoyon qiladi, bu davr barcha patologiya holatlarining 50 foizini tashkil qiladi. Kasallikning asosiy belgisi — terida sut rangini eslatadigan oq va aniq chegaralangan dog'lar paydo bo'lishidir. Pes ko'pincha tananing yuz (og'iz, quloq, ko'z, burun atrofi), qo'llar va oyoqlar (ularning orqa tomoni, barmoq uchlari, tirsak, oyoq panjasi, tizzalar), chov sohasi va anal atrofi kabi sohalariga ta'sir qiladi.

Oq dog'lar boshning sochli joylarida, shu jumladan erkaklarda soqol va mo'ylov sohalarida ham paydo bo'lishi mumkin. Odam pes kasalligi bilan tug'ilmaydi, ushbu teri patologiyasi bir qator tashqi va ichki omillar ta'siri ostida shakllana boshlaydi. E'tiborli jihati kasallik juda kamdan-kam hollarda yoshlikda, ya'ni 10 yoshgacha bo'lgan davrda namoyon bo'ladi. Yoz va bahor davrlarida quyosh faolligining oshishi va vitiligoning ilk namoyon bo'lishi orasida aloqa mavjudligi o'rnatilgan. Teridagi oq dog'lar ba'zi yallig'lanishli kasalliklarda toshma toshishidan keyin qolishi mumkin, masalan psoriasis, ekzema, qizil yugurik, kuyishlar va hokazo. Buning sababi quyosh nurlari ta'sirida toshma atrofidagi terida pigment miqdori ortadi, usti qobiq bilan yopilgan terida esa pigmentlar kamroq bo'ladi.

DAVOLASH VA DIAGNOSTIKA: Dog'lar har doim ham vitiligoga sabab bo'lmashligi mumkin. Ayrim hollarda zamburug'li kasalliklar va gijjalar, shuningdek kamqonlik ham oq dog'lar paydo bo'lishiga olib keladi. Vitiligo rivojlanayaptimi, yo'qmi aniq tashxisni faqat shifokor qo'yadi. Dog'lar paydo bo'lishi bilan qancha tez shifokorga murojaat etsangiz, uni davolash shuncha oson kechadi.

Xalq orasida "pes" deya nomlanadigan vitiligo kasalligi qadim zamonlardan beri insoniyatga ma'lum bo'lsa-da, uning davosi hali-hanuz sirililgicha qolayotgan xastaliklardan biri. Terida oq dog'larning paydo bo'lib, ko'payib borishi bilan xarakterlanadigan ushbu kasallik inson salomatligidan ko'ra ko'proq uning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Kelib chiqish sabablari noma'lum bo'lgani bois uni davolash ham qiyin sanaladi.

Kasallikning yuzaga kelishiga quyidagilar sababchi bo'lishi mumkin:

- *.Homiladorlik paytida homilaning gipoksiya (kislorod va boshqa oziq moddalarning yetishmasligi) ga chalinishi.
- *.Tug'ilish vaqtida bolaning bosh miya jarohat olishi tufayli.
- *.Oshqozon-ichak tizimi, gijja, ikkilamchi yuqumli kasalliklar, buyrak, siydik yo'llarining yallig'lanishi.
- *.O't yo'li, jigar xastaliklari, ayniqsa, virusli gepatit (sariq kasali) chalinish oqibatida.
- *.Infeksiya o'choqlari-angina (bodomcha bezlarining yallig'lanishi)
- *.Yosh bolalarning hazm qilish a'zolaridagi buzilishlar.
- *.Maktab yoshidagi bolalarda burun-halqum yo'lida yuzaga keladigan), gaymarit (burun yondosh bo'shliqlaridagi yallig'lanish), karies (tishlarning chirishi).
- *.Asab tizimidagi o'zgarishlar (kuchli ruhiy zarba, uzoq vaqtgacha ruhiy tushkunlik holatiga tushish).
- *.O'spirin va o'rta yoshdagi insonlarda kasallikning yuzaga kelishiga endokrin tizimidagi o'zgarishlar, vaqtida ovqatlanmaslik yoki noto'g'ri ovqatlanish natijasida gastrit, oshqozon, 12 barmoq ichak yarasi kabi xastaliklar sababchi bo'ladi.
- *.Tanada ruh, mis, yod kabi foydali moddalar yetishmovchiligi oqibatida

*.Qalqonsimon bez faoliyati izdan chiqqanda (bunda asosan bo‘qoq kasalligi) boshqa endiokrin kasalliklardan qandli diabet kasalligiga chalinish sababchi bo‘ladi.

*.Teriga rang beruvchi melanin pigmentining yetishmasligi natijasida. Ayollarda erkaklarga nisbatan vitiligo 2-3 marta ko‘proq uchrashi kuzatilgan. Ko‘p hollarda bunga ayollarning tug‘ruq hamda klimaks davrida ro‘y beradigan endokrin o‘zgarishlar sabab bo‘ladi. Hozirgi zamonda tibbiyot vitiligoni davolash borasida katta yutuqlarga erishdi. Aynan shuning uchun davoni faqat malakali mutaxassis shifokorlar olib borishi kerak. Teri rangining kuchli o‘zgarishi, oq dog‘lar bilan kechuvchi mazkur kasallik bemor uchun umrbod «hukm»dek qaralgan. Ammo «vitiligo davolanmaydi» degan stereotip endi o‘tmishda qoldi. Uni mutaqa asoratsiz va og‘riqsiz davolash mumkin. Eng ahamiyatlisi, buning uchun Hindistonga yoki Yevropaga borish shart emas. O‘zbekistonning o‘zidayoq bu muammoga yechim topish mumkin. Dermatovenerologiya markazida yo‘lga qo‘yilgan yangi lazer texnologiyasi asosidagi jarrohlik amaliyotini o‘tkazish bilan bu injiq xastalikni batamom bartaraf etish mumkin. MDH davlatlari orasida aynan O‘zbekistonda ilk bor vitiligoni jarrohlik yo‘li bilan davolashning yo‘lga qo‘yilgani ham dermatovenerologiya sohasidagi tub burilishlarning isbotidir. Ilgari vitiligodan shifo izlab boshqa davlatlarga borishga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, endi buni O‘zbekistonning o‘zidayoq amalga oshirish mumkin. Melanositar transplantasiya -Ushbu davolash usulining ustunligi shundaki, tananing barcha soxasidagi oq dog‘larni davolash mumkin (yuz, bosh, bo‘yin, tana, qo‘l, oyoq, qovoqlar, jinsiy a‘zo terisi). Ko‘chirib o‘tqazilgan oq dog‘ soxasida 2 oydan 6 oygacha bo‘lgan muddatda davo samaradorligi kuzatiladi. Segmentar va chegaralangan vitiligo tashxisli bemorlar ushbu davo usuli uchun yaqqol ko‘rsatma xisoblanadi. Melanositar transplantasiya — vitiligoni davolashdagi jarrohlik usullari orasida eng yangi bo‘lib, barqaror holatdagi vitiligo va kuyishdan keyingi (issiqlik yoki lazerdan kuyish) depigment dog‘larni davolashda qo‘llaniladi.

XULOSA: Diagnostika jarayonida klinik ko‘rik asosiy o‘rin tutadi. Wood lampasi yordamida dog‘larning chegarasi aniqlanadi, zarur hollarda dermatoskopiya, teri biopsiyasi va laborator tekshiruvlar (qalqonsimon bez gormonlari, autoimmun ko‘rsatkichlar) o‘tkaziladi. To‘g‘ri tashxis qo‘yish leykodermiyaning sababini aniqlash va samarali davolashni tanlash uchun muhimdir. Davolash kasallik sababiga va tarqalish darajasiga bog‘liq. Asosiy usullariga mahalliy kortikosteroidlar, kalsinevrin ingibitorlari, fototerapiya (UVB), vitamin va mikroelementlar qo‘llash kiradi. Zarur hollarda asosiy kasallikni davolash, quyoshdan himoyalash va psixologik qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi. Umuman olganda, leykodermiyani erta aniqlash, to‘g‘ri tashxis va kompleks yondashuv orqali pigmentatsiyani qisman yoki to‘liq tiklash, kasallikning zo‘rayishini oldini olish va bemor hayot sifatini yaxshilash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Darakchi.uz ,

-
2. Yosh oilalarga tibbiy maslaxatlar jurnali , Dermatallogiya jurnali, MED 360,
 3. TERI TANOSIL KASALLIKLARI TOSHKENT -2010 , BOKK.BSMI.UZ

